

Termitlarga qarshi kurashish bo'yicha Ishchi guruh a'zolari Xorazmda

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-fevraldagi 89-F -sonli farmoyishiga asosan Xorazm viloyatining Xiva shahrida termitlar tarqalishini o'rganish hamda uning oldini olish va ularga qarshi kurashish tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha Respublika ishchi guruhi a'zolari - FA Zoologiya instituti direktori B.Xolmatov, laboratoriya mudiri G.Mirzayeva hamda Termitlarga qarshi kurashish markazi direktori K.Rustamov tomonidan Xiva shahriga ilmiy safar tashkil etildi.

Ishchi guruh a'zolari tomonidan Xorazm viloyati Xiva tumani hokimligi bilan hamkorlikda Xiva shahrida termitlar tarqalgan mahalla fuqarolar yig'ini raislari, Ichan qal'a muzey qo'riqxonasi xodimlari, Xiva tumani Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi hamda Sanitariya epidemiologiya xodimlari, Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari bilan birgalikda termitlarning tarqalishi va zarari bo'yicha davra suhbatlari o'tkazildi. Davra suhbatidan so'ng termitlardan zarar ko'rgan va buzilishi lozim bo'lgan bino va inshootlar joyiga chiqib o'rganildi.





Shuningdek, safar mobaynida Ishchi guruh a'zolari hamda Xorazm Ma'mun akademiyasi mutaxassisleri bilan hamkorlikda Xorazm viloyatining Xiva shahrida termitlarga qarshi kurashish ishlarini kompleks amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqildi.